



LOCAL CHARACTERISTICS OF FAMILY CEREMONIES AND TRADITIONS IN THE SURKHAN OASIS

Nurbek O'ktamovich Ro'ziboyev

PhD Researcher in "Ethnography, Ethnology, and Anthropology"

Termez State University

E-mail: nurshox97@mail.ru

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: "lifelong rites (umrboqi udumlar)", "passagerites (passagerites)", receiving the "Qorinsochi" has also become a great celebration, "uvol", "sawab-gunoh".

Received: 10.07.25

Accepted: 11.07.25

Published: 12.07.25

Abstract: This article describes the work being done in Uzbekistan during the years of national independence to restore the ancient history and rich cultural heritage of the people and to present it to the world community. In this regard, information is provided that, along with other historical and ethnographic regions of Uzbekistan, the Surkhan oasis has a special place, and geographical and natural advantages have led to the harmonious formation of extremely diverse cultures and traditions in it over thousands of years.

SURXON VOHASIDA OILAVIY MAROSIMLAR VA AN'ANALARNING LOKAL XUSUSIYATLARI

Nurbek O'ktamovich Ro'ziboyev

"Etnografiya, etnologiya va antropologiya" ixtisosligi tayanch doktoranti

Termiz davlat universiteti

E-mail: nurshox97@mail.ru

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: "umrboqi udumlar (lifelongrites)", "o'tish marosimlari (passagerites)", "Qorinsochi" ni olish xam katta tantanaga aylangan, "uvol", "savob-gunoh".

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda milliy mustaqillik yillarida xalqning qadimiy tarixi va boy madaniy merosini tiklash hamda uni dunyo jamoatchiligiga yetkazish borasida ko'plab amaliy ishlar bajarilmoqda. Bu o'rinda O'zbekistonning boshqa tarixiy-etnografik mintaqalari qatorida Surxon vohasini ham o'ziga xos o'rni bo'lib, geografik va tabiiy qulayliklar unda ming yillar mobaynida g'oyat

xilma-xil madaniyatlar va an'analarning uyg'unlashgan holda shakllanishiga sabab bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

ЛОКАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СЕМЕЙНЫХ ОБРЯДОВ И ТРАДИЦИЙ В СУРХАНДАРЬИНСКОМ ОАЗИСЕ

Нурбек Уктамович Рузибаев

Соискатель степени PhD по специальности

«Этнография, этнология и антропология»

Термезский государственный университет

E-mail: nurshox97@mail.ru

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «обряды, длящиеся всю жизнь (умрбоки удумлар)», «пассагериты (пассагериты)», получение «Коринсочи» также стало большим праздником, «увол», «саваб-гунох».

Аннотация: В данной статье описывается работа, проводимая в Узбекистане в годы национальной независимости по восстановлению древней истории и богатого культурного наследия народа и представлению его мировому сообществу. В этой связи приводится информация о том, что наряду с другими историко-этнографическими регионами Узбекистана Сурханский оазис занимает особое место, а географические и природные преимущества обусловили гармоничное формирование в нем на протяжении тысячелетий чрезвычайно разнообразных культур и традиций.

Kirish

O'zbekistonda o'tkaziladigan turli oilaviy va jamoaviy marosimlar umumiy va xususiy jihatlar bilan ajralib turadi. Respublika miqyosida qiyosiy tahlil qilinganda barcha mintaqalarda o'tkaziladigan marosimlar va odatlar qariyb o'xshash holatda tashkil etilsada ammo, ayrim xususiy holatlar ham mavjudki, bu jarayon aholining turmush tarzi, kundalik mashg'uloti, orzuistaklari va mahalliy an'analar bilan bog'liq qarashlardagi o'ziga xoslik asosida yuzaga keladi. Chunki, an'ana, urf-odat va marosimlarning yuzaga kelishi va xalq ijtimoiy va diniy hayotida muhim o'rin egallashi murakkab jarayon bo'lib, unga bir qancha omillar ta'sir o'tkazadi. Ya'ni, milliy o'ziga xosliklar uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy-geografik o'rnashuv, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular hamda xalqning ruhiy-psixologik qarashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi.

Surxon vohasi aholisi tomonidan tashkil etiladigan oilaviy marosimlarda ham umumo'zbekka xos jihatlar bilan bir qatorda, xususiy ko'rinishlar ham mavjud. Inson tug'ilib, to

vafot etgunga qadar o'tkaziladigan barcha tadbirlar "umrboqiy udumlar (lifelongrites)" deb nomlansa, ijtimoiy antropologiyada esa ushbu atama "o'tish marosimlari (passagerites)" deb yuritiladi. Taniqli fransuz etnologi A. Van Gennepning ta'rifiga ko'ra, o'tish marosimlari ikki turga bo'linadi: a) tavallud, balog'at yoshiga yetish, unashtirish, turmush qurish va o'lim kabi umrning ma'lum bir pallasidan keyingi bosqichiga o'tish vaqti bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan marosimlar. b) oy-quyoshning o'zgarishi hamda yil fasllari almashishiga qarab nishonlanadigan mavsumiy marosimlar.

Adabiyotlar tahlili va metod. Insoniyat tarixiy taraqqiyotida oilaning eng muhim amaliyotlaridan biri-zurriyot qoldirishdir. Shuning uchun hamayolning bebaho hislatlaridan biri uning farzand ko'rishi deb hisoblangan. Bolag amehr qo'yish, ko'p bolali oilalarni hurmat qilish, oilaga serfarzandlikni tilash kabi ezgu niyatlar o'zbeklar milliy ruhiyatining ifodasi bo'lib, xalq orasida qadimdan farzand ko'rish baxti eng yuksak saodat hisoblanadi.

Surxon vohasi aholisida ham boshqa mintaqalarda yashovchi o'zbeklar va tojiklarda bo'lgani singari muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarda nazr - niyoz qilinishi natijasida tug'ilgan chaqaloqlarga atab maxsus marosimlar o'tkazish odati saqlanib qolgan. Bunday marosimlarga Aqiqa, Qurbonlik, Kokil olish va qo'yish, qonlash, mushkulkushod kabilarni kiritish mumkin. Bu kabi marosimlarni ziyoratgohlarda o'tkazilishi zamirida go'dakni muqaddas qadamjoga nomi berilgan avliyo yoki ziyoratgoh homiysi turli ins - jinslardan himoya qilishi bilan bog'liq g'oya va niyat mujassamlashgan.

Surxon vohasida bola tug'ilganidan (kindigi tushganidan) keyin yetti kun bo'lganda bolani ilk bora cho'miltirish uchun maxsus suv tayyorlangan, ya'ni uy issiqligida ilitilgan suvga tuz va tuproq solingan. Chaqaloq tog'oraga o'tqazilib, maxsus tayyorlangan suv avval o'ng tomonidan so'ngra chap tomonidan quyilgan. Suvga solingan ashyolar xosiyati masalasiga kelsak, tuz gigenik jihatdan chaqaloq terisini qotirgan va turli toshmalar hamda kasalliklarning oldini olishi bilan birga to'kin - sochinlik va rizq - nasiba ramzi bo'lgan. Tuproq tanaga turli o'simtalar va tuklar chiqishining oldini olgan. Chaqaloq marosimiy tarzda cho'miltirilgandan so'ng hatto uni yuvintirishga ishlatilgan suv ham oyoqostiga emas, balki biror - bir mevali daraxt ostiga to'kilgan. O'z o'rnida ta'kidlash joizki chaqaloqni birinchi marta marosimiy cho'miltirish uni nafaqat gigenik jihatdan poklanishini anglatgan, balki ramziy ma'noda uning bir olamdan ikkinchisiga o'tishi, ya'ni uning "tabiat" olamidani insonlar dunyosiga o'tishini bildirgan. Bola marosimiy tarzda cho'miltirilganidan keyingina oilaning rasmiy a'zosi xisoblangan.

Muhokama. Surxon vohasida bolani beshikka belashda qarindosh - urug'lar va mahallada, qishloqda hurmatli - e'tiborli, uvali - juvali, nikohi buzilmagan ayollar tanlangan. Bolani beshikka belash jarayonida "Qo'rqmas botir bo'lgini, sog'lom o'sgini, uzoq yashagini!" degan

niyat bildirilib turiladi. Shu tarzda bola beshikka belanib, qo'l oyog'i bog'langandan keyin atrofdagilar beshik ustidan turli shirinliklar, o'rik, pista, bodom, mayiz, jiya kabi mevalarni sochganlar. Ushbu sochqilar marosim qatnashchilari tomonidan terib olinib, o'z farzandlariga yaxshi niyatlar bilan ulashilgan. Chaqaloqning dastlabki "Qorinsochi" ni olish xam katta tantanaga aylangan. Ajdodlarimiz "Sochda odamning joni, kuch-qudrati joylashgan" deb tasavvur qilganlar. Ular bolaning qorin sochlarini o'zlari olishdan cho'chib, pir-badavlat, ko'p farzandli, keksa yoshli otaxonlarimizga oldirganlar va ulami asrab - avaylab mevali daraxt tagiga ko'mganlar. O'z o'rnida shuni xam ta'kidlash lozimki, chaqaloqning dastlabki qorin sochini olish islomdan avvalgi an'ana bo'lib, u bolani jamiyat hayotiga qo'shilishi ramziy bir bosqichini anglatuvchi initatsion marosimning bir ko'rinishi bo'lib, bolaning dastlabki sochining olinishi uning onaqornidagi hayotidan butkul ajralganligi va insonlar olamiga qo'shilganligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, farzand tug'ilishi va tarbiyasi insoniyatning asosiy xatti-harakatlaridan biri bo'lganligi bois, bugungi kunda tug'ilish ko'rsatkichlarining kamayishi insonlarning farzandga bo'lgan e'tibori kamayganini anglatmaydi. Aksincha, hozirgi iqtisodiy farovonlik yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan aholi ahamiyatining kuchayishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ya'ni, vaqt o'tgan sari xalq orasida jamoaning roli va o'zni qisqarib borsa ham, yangi avlodni dunyoga keltirish va millat genofondini asrash muhim vazifalaridan biri deb hisoblanmoqda. Demak, o'zbek xalqining urf-odat va an'analari zamon talabiga moslashib o'zgarib borayotgan bo'lishiga qaramay, yosh avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash doimo butun aholining e'tiborida bo'ladi.

O'zbek etnopedagogikasi bir tarixiy asos, yaxlit bir tarkibiy ko'rinishga ega bo'lsada, bu har bir hududda bola tarbiyasiga oid turfa jihatlar ham mavjudligini inkor qilmaydi.

Surxondaryo o'zining polvonlari, baxshilari, mehnatkash va mehmondo'st xalqi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada surxondaryoliklarning bola tarbiyasiga oid tajribalaridan ayrim ma'lumotlar keltiriladi.

Natijalar. Dunyodagi aksariyat xalqlar kabi o'zbek xalqi ham asrlar mobaynida bolaning turli yosh bosqichiga va jinsiga mos tarbiya tizimini yaratdi. Unga ko'ra go'daklar va 5-6 yoshgacha bo'lgan bolalarga xulq-atvor qoidalari bir hil tarzda o'rgatib borilgan. So'ngra o'g'il va qiz bola tarbiyasida farqlanish ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, o'zbek etnopedagogikasining muhimi xususiyatlardan biri, bu – yosh otionalarga farzand tarbiyasida katta avlod vakillarining faol yordam berishi va aksariyat hollarda tarbiyadagi tashabbusni ham o'z qo'llariga olishlaridir. Surxondaryoda ham bola tarbiyasi jarayonida oilaning boshqa a'zolari faol qatnashadilar. Jumladan, bobolar, buvilar, xola, tog'a, amma, amaki va h.k. Yosh oilalarning ota-onalari bilan birga yashashi bola

tarbiyalashda kattalar yordamiga tayanishga imkon beradi. Ayniqsa, o'g'il bola tarbiyasi uchun tog'aning o'rni katta bo'lgan. Barcha oilaviy marosimlarda tog'a boshchilik qilgan, bolalar yetim qolsa, tog'a o'z qaramog'iga olgan. Etnografik ma'lumotlar amma va yangalar ham bola tarbiyasida faol ishtirok etganini ko'rsatmoqda.

Xulosa. Umuman olganda, tajribali ota-onalar iloji boricha bolalar oldida urishmaslikka harakat qilishadi, chunki bu holat ularning obro'sini to'kishini yaxshi bilishadi. Er ham, xotin ham bolalar oldida o'z xurmatlarini saqlashga baravar harakat qilishgan. Aksariyat oilalarda ota-onalarning o'z farzandlariga bo'lgan his-tuyg'ulari ochiq ko'rsatilavermaydi. Ota-onalar nafaqat bolalarga bo'lgan his-tuyg'ularini, balki shu bilan birga er-xotin o'rtasidagi emotsional holatlarni ham yashirib, bolalar oldida o'zlarini juda sipo va jiddiy tutishadi. 11 farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan axborotchining aytishicha, u o'z farzandlarini jonidan ortiq sevgan, hayotini ularga bag'ishlagan bo'lsada, bolalarni o'pib-siypalashni, ularga "yaxshi ko'rishi"ni ta'kidlashni noto'g'ri, deb bilgan.

Xullas, Surxondaryoda etnopedagogik tajribalar sifatida tarbiyada barcha oila a'zolarining, ayniqsa, katta avlod vakillari – bobo, buvilarning faol ishtiroki; bolalarga tarbiya berishda noverbal ta'sir etish usullaridan foydalanish; bolalarga barcha qarindosh-urug'larga nisbatan oqibatli bo'lish, ota-onalari oldida burchli bo'lish, mehmondo'stlikni uqtirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Ayni paytda oilada ota-onalarning farzandlar bilan bo'lgan munosabatlarida ota mavqei muhim o'rin tutib kelgan.

Axloqiy xislatlar sifatida yana kattalarni hurmat qilish, ularga «quloq solish», kengfe'llik, bag'rikenglik, kechirimlilik uqtirib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent:O'zbekiston, 2016.-.
2. Mirziyoyev. Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O'zbekiston, 2017.-26b.
3. S.Tursunov, B.Jo'rayev. Mahalla-mustaqil yurt tayanchi. – Toshkent:Muharrir, 2012. 12-b.
4. Tursunov S.N. Surxondaryo viloyati tarixini o'rganish. – Toshkent., 1997.
5. Tursunov S.N va boshhalar. Surxondaryo tarixi ko'zglasida. T.2001.
6. Jabbarov I. M. O'zbek xalqi etnografiyasi. T., «O'zbekiston» 1994.
7. Jabbarov I. M. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. T., 2003.
8. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Boysun tumani.2020 yil.
9. Dala yozuvlari. Sherobod tumani. 2020-2021 yy.